

RUS TILSHUNOSLIGI FONETIKASI, GRAMMATIKASI VA LESIK TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdumalikova Feruzabonu Murodjon qizi
Andijon Davlat Chet Tillari Instituti talabasi.
Ilmiy maslahatchilar: Zaynobiddinova Iroda,
Kabulova Umida.

Annotatsiya: Mazkur tezis maqolada rus tilshunosligining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, ilmiy maktablari va fonetik tizimida intonatsiyaning tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Rus tilshunosligi fonetikasi, grammatikasi va leksik tizimining o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, intonatsiyaning gap ma'nosini belgilashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari bo'yicha olimlarning qarashlari ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: rus tilshunosligi, fonetika, intonatsiya, grammatik tizim, til tarixi, lingvistika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются становление русского языкознания, этапы его развития, научные школы и роль интонации в фонетической системе русского языка. Освещаются особенности фонетики, грамматики и лексического строя русского языка, а также подчеркивается значение интонации в формировании смысловой структуры высказывания.

Ключевые слова: русское языкознание, фонетика, интонация, грамматика, история языка, лингвистика.

Abstract. This thesis article discusses the development of Russian linguistics, its scientific schools, and the role of intonation within the phonetic system of the Russian language. It highlights the structural features of Russian phonetics, grammar, and vocabulary, emphasizing the importance of intonation in conveying meaning and shaping communication.

Keywords: Russian linguistics, phonetics, intonation, grammar, history of language, linguistics

ASOSIY QISM

Oddiy boshlash: Rus tilshunosligi rus tilining tuzilishi, grammatikasi, fonetikasi, leksikasi va tarixiy rivojlanishini o'rganuvchi ilmiy sohaga aytiladi. XIX–XX asrlarda A. A. Shaxmatov, F. F. Fortunatov va V. V. Vinogradov kabi olimlarning ilmiy merosi ushbu sohaga mustahkam poydevor yaratgan. Ularning izlanishlari rus tili tuzilishini ilmiy asosda yoritishga xizmat qilgan.

Bu g'oyalar yagona emas, boshqa olimlar ham o'z fikrini bildirgan.

Masalan, A. A. Reformatskiy til tizimini struktura sifatida talqin qilib, fonetika va ayniqsa intonatsiyaning nutq mazmunini shakllantirishdagi rolini alohida qayd etadi.

Unga ko‘ra, intonatsiya gapning maqsadini belgilaydi, hissiy bo‘yoqdorlikni oshiradi va muloqotning pragmatik mazmunini shakllantiradi.

E’tirof etishicha, V. V. Vinogradov rus fonetikasida intonatsiyaning funksional ahamiyatini chuqur o‘rgangan va uning gap turini aniqlashdagi o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlagan. Olim fikricha, nutqdagi pauza, ohang balandligi, temp va urg‘u elementlari intonatsiyaning tarkibiy qismlarini tashkil qiladi va ular gap ma’nosini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Kuzatishlari natijasida, Zamonaviy lingvistlar rus tili intonatsion tizimi o‘zining murakkab strukturasiga ega ekanini ta’kidlaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, IK-1, IK-2 va IK-3 kabi intonatsion modellarning mavjudligi nutqda semantik farqlanishni yuzaga keltiradi. Bu modellar nafaqat grammatik tuzilmani, balki muloqotning pragmatik yo‘nalishini ham belgilaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, rus tilshunosligi o‘zining boy ilmiy merosi, fonetik tizimidagi intonatsiyaning alohida o‘rni va keng tadqiqot yo‘nalishlari bilan jahon tilshunosligida muhim mavqega ega. Intonatsiya esa nutq mazmunini to‘g‘ri yetkazish, gapning maqsadini belgilash va muloqot jarayonida kommunikativ samaradorlikni oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fortunatov F. F. — Избранные труды по языкознанию. Москва, 1956.
2. Реформатский А. А. — Введение в языкознание. Москва, 1996.
3. Виноградов В. В. — Русский язык. Грамматическое учение. Москва, 1986.
4. Шахматов А. А. — Учение об интонации. Санкт-Петербург, 1910.